inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mamlakatda "yashil" iqtisodiyot va "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash, iqlim o'zgarishiga doir masalalarda davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish, "yashil" iqtisodiyot sohasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali aholi va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, shuningdek, ushbu yo'nalishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan say-harakatlarini ta'minlash bilan bog'liq ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etishga yo'naltirilgan. "Ekologiyani asrash, tabiiy resurslarni tejab ishlatish, jumladan, suvdan oqilona foydalanish bo'yicha zamonaviy tizimlarga o'tish ishlarini kuchaytirdik. Mamlakatimizda "Yashil makon" dasturi davom etmoqda"[1] deb Prezidentimiz tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Ilmiy muammoning qo'yilishi

Iqtisodiyotning iqlim o'zgarishiga ta'sirini xorijiy tadqiqotchilar: V. Nordxaus, Pol Romer, S. J.Tol Richard, E. Barbier, D. Piars, K.K. Rixter, va boshqalar o'z tadqiqotlarida ishlab chiqishgan.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish modellari: "yashil" iqtisodiyot, bioiqtisodiyot, aylanma iqtisodiyot, "jigarrang" iqtisodiyot va boshqalarni rus olimlari D.A. Agapov, S.N. Bobylev, O.P. Burmatova, E.O. Vegner-Kozlova, O.Yu. Ganyuxina, A.V. Grebenkin, E.M. Zomonova, N.Yu. Nesterenko, N.V. Paxomova, T.A. Selishcheva tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.V.Vahabov, A.O'lmasov, S.V.Chepel, X.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, T.T.Jo'raev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiy o'sish nazariyasi va ekalogik muammolarni o'zaro bog'liqligining nazariy jihatlarini bo'yicha atroflicha tadqiqotlar olib borilgan.

Iqtisodiy fanda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi va ekalogik muammolarni o'zaro bog'liqligini yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqqan olimlardan biri Uilyam Nordxaus hisoblanadi. Uning "Integrallashgan baholash modelida" (IAM) iqlim o'zgarishlari bilan iqtisodiy o'sish modelini bir biri bilan bog'ladi[2].

Rus olimlari Ye. Lyackovckaya va K. Grigoreva "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida "barqaror rivojlanish", inklyuziv rivojlanish, "yashil" va "jigar" rang iqtisodiyot modellarini ko'rib chiqishgan[3].

Respublikamiz olimlaridan Urazov B.A., Xoliqov D. R. xulosalariga ko'ra yashil infratuzilma, jumladan, shahar parklari, yashil tomlar, ko'cha daraxtlari va qirg'oqlarni tiklash ham yashil iqtisodiyot maqsadlariga hissa qo'shadi[4].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi.

Asosiy taxlil va natijalar. Jahon iqtisodiyotida so'nggi asrda insoniyat ekologiyaga va atrof-muhit holatiga to'g'ri g'amxo'rlik qilmasdan iqtisodiy faoliyat olib bordi va rivojlandi. Sayyorada shaharlar yiriklashib, aholisi 20–35 millionli megapolislar ko'payib bormoqda. Bu energoresurslar, ayniqsa, yoqilg'iga bo'lgan talabni kun sayin o'sib bormoqda. Inson omili tufayli oxirgi yuz yilda er sharida

ekin ekiladigan er maydoni to'rtidan bir qismga, o'rmonlar uchdan ikki qismga qisqardi. Buning natijasida dunyo bo'yicha keyingi 30 yil ichida hayvonot olamining 8–10 foizi qirilib ketdi. Sayyoramizda tropik o'rmonlar 14 foizni tashkil qilgan bo'lsa hozirda uning 6 foizi qoldi. So'ngi 50 yil ichida dunyoda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ichimlik suvi 60 foizga kamaydi. Natijada butun ekotizimga antropogen tavsifdagi zarar etkazildi, bu holat insoniyat istiqboliga tahdid solmoqda. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jahon iqtisodiyotida "yashil" iqtisodiyotga o'tish muhim hayotiy ehtiyojga aylandi.

Tabiatdan foydalanish – bu jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish va uni takror ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bu ko'pincha tengsiz ekologik almashinuvga olib keladi, natijada bunda ayrim mamlakatlarning xo'jalik sub'ektlari foyda ko'radi, shu bilan birga ularning iqtisodiy faoliyatining salbiy oqibatlari zararidan dunyoning boshqa mintaqalari va mamlakatlari talofat ko'radi. Tabiatdan foydalanish, bir tomondan, mintaqaviy xususiyatga ega, chunki u ma'lum bir davlat hududida sodir bo'ladi, ikkinchi tomondan, u global xususiyatga ega, chunki uning salbiy oqibatlari dunyoning boshqa mamlakatlari va mintaqalariga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham tabiiy jarayonlar biosferaning barqarorligini ta'minlaydigan ekologik salohiyatini iste'mol qilish darajasiga erishish uchun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan o'zaro hamkorlik zarur.

Mutaxassislarning fikricha, "yashil iqtisodiyot" an'anaviy "jigarrang iqtisodiyot"ga qaraganda qisqa muddatda YalMning o'sishini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning ortishini va ish bilan ta'minlanishni bir xil yoki undan yuqoriroq ko'rsatkichda oshirishi mumkin. So'nggi paytlarda o'tkazilgan xalqaro munozaralar yashil iqtisodiyot" tushunchasini aniq ishlab chiqish, uni barcha mamlakatlar manfaatlari nuqtai nazaridan amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy fanda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi va ekologik muammolarni o'zaro bog'liqligini yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqqan olimlardan biri Uilyam Nordxaus hisoblanadi. Uning "Integrallashgan baholash modelida" (IAM) iqlim o'zgarishlari bilan iqtisodiy o'sish modelini bir biri bilan bog'ladi. U.Nordxaus ishlab chiqarish funksiyasi modeliga ikki yangi o'zgaruvchini kiritdi: tabiiy resurslar va ekologik zarar. Tabiiy resurslar ishlab chiqarish funksiyasi modelida ishchi kuchi, kapital, asosiy fondlar kabi ishlab chiqarish omili sifatida olingan; ekologik zarar birdan kichik bo'lgan ko'paytiruvchi bo'lib u ishlab chiqarish xajmini kamaytiradi. Bu modelda barcha omillar texnologik taraqqiyot natijasida o'sib borsa ekologik zarar esa birdan kichik bo'lgan ko'paytiruvchi hisobiga atmosferani ifloslanish darajasiga qarab kamayib boradi[5].

Rus olimlari Ye. Lyackovckaya va K. Grigoreva "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida "barqaror rivojlanish", inklyuziv rivojlanish", "yashil" va "jigar" rang iqtisodiyot modellarini ko'rib chiqishgan. Iqtisodiyotning "jigar" rang rivojlanish modeli XX asrga huc bo'lgan va energo-recure cig'imi yuqori bo'lgan an'anaviy ishlab chiqarish nazarda tutilgan. Uning acociy calbiy oqibatlari ekologik muammolarni keckinlashishi, tabiiy boyliklapni camaraciz ishlatilishi, cuv recurclar, oziq-ovqat va energiya tanqicligi bilan bog'liq deb hicoblanmoqda[6].

Respublikamiz iqtisodchim olimlaridan Urazov B.A., Xoliqov D. R. xulosalariga ko'ra yashil infratuzilma, jumladan, shahar parklari, yashil tomalar, ko'cha daraxtlari va qirg'oqlarni tiklash ham yashil iqtisodiyot maqsadlariga hissa qo'shadi. "Yashil iqtisodiyot"ni pivojlanishida xizmatlap cohasining muhim yo'nalishlaridan biri "ekologik" tizimni rivojlantirish katta ahamiyatga ega[7]. Natijada, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda imkoniyatlarini kengaytiradi.


"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi yirik investitsiyalarni (yiliga YaIMning 2 foizigacha) talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta'sir qiladi[8]. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantiradi, ijtimoiy barqarorlikka ko'maklashadi, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga erishish mumkin.

"Yashil iqtisodiyot" insoniyat va tabiatning barqaror va muvozanatli o'zaro ta'sirini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasidir. "Yashil iqtisodiyot"ning asosiy g'oyasi atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish va tabiiy resurslardan unumli, barqaror foydalanish orqali boylik yaratish va aholi faravonligini ta'minlash hisoblanadi. Uning maqsadi tabiiy resurslarni tejash, ifloslanishni kamaytirish, hozirgi va kelajak avlodlar faravonligini ta'minlaydigan barqaror iqtisodiy modellarni yaratishdir.

20-asrning oxirida jahon hamjamiyatida atrof-muhitning holati to'g'risidagi tashvish keskin o'sdi. Faqatgina o'tgan asrning oxirida mamlakatlar o'rtasida har bir davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik muammolarni tartibga solishga qaratilgan birinchi global shartnoma imzolandi. Ushbu hujjat Kioto protokoli deb ataladi va u faqat 1997- yilda qabul qilingan. Uning maqsadi atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini tartibga solish va ularni asta-sekin atrof-muhitga va ayniqsa iqlimga halokatli ta'sir ko'rsatmaydigan darajaga kamaytirish edi, bu esa sayyora uchun keyinchalik halokatli bo'lishi mumkin bo'lgan haroratning pasayishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Ekologik barqarorlik - bu barqaror tarkibiy tuzilmani funksiyalarini ekotizimning ichki va tashqi omillar ta'siridan tashkiliy tamoyillarini saqlab qolish qobiliyatidir. Ishlab chiqilgan BRMlari hozirgi va kelajak avlodlar uchun teng ekologik manfaatlar tamoyiliga asoslanadi. Barqaror rivojlanish tabiiy ekotizimlar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi yaqin aloqadorlik munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, insonlar asosiy bo'g'indir, chunki ular global biosfera tizimidagi o'z rolini aniqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun uni saqlash va boshqarish uchun javobgardir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit assambleyasi atrof-muhit masalalari bo'yicha qaror qabul qiluvchi xalqaro tashkilotdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi "Bizning dunyomizni o'zgartirish: Barqaror rivojlanish bo'yicha 2030-yilgacha kun tartibi" deklaratsiyasi katta ahamiyatga ega bo'lib, unda 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) belgilab berilgan. Ular orasida ekologik barqaror rivojlantirishning 5 ta asosiy maqsadi mavjud (1-rasm):



1-rasm. Ekologik barqaror rivojlantirishning 5 ta asosiy maqsadi[9].

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, havoning ifloslanishi koronavirus infeksiyasidan o'lim ko'payishiga hissa qo'shgan. 2020-yildagi karantin va izolyatsiya davrida dunyo bo'ylab ko'pchilik sanoat korxonalari o'z faoliyatini to'xtatdi, bu esa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining umumiy 5,8 foizga qisqarishiga olib keldi, chunki energiyaga bo'lgan talab 4 foizga qisqardi. Bu davrda ekologik vaziyat sezilarli darajada yaxshilana boshladi, karbonat angidrid miqdori oxirgi marta faqat ikkinchi jahon urushi davrida qayd etilgan rekord darajaga keskin pasaydi.



2-rasm. “Yashil iqtisodiyotga” kiritilgan yo‘nalishlar[10].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturida “yashil” iqtisodiyot ijtimoiy adolatni shakllantirish va rivojlantirish, insonlar turmush farovonligini oshirish, ekologik muammolarni kamaytirish va iqlim falokati xavfini

kamaytirishga mo'ljallanganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun bunday iqtisodiyot resurstejamkor kam uglerodli va ijtimoiy inklyuziv bo'lib hisoblanadi va "Yashil iqtisodiyotga" kiritilgan yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy transformatsiyaning asosini tashkil etadi. Raqamlashtirish - to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy elementi bo'lib, yashil sektor esa yashil sanoat inqilobiga erishish uchun asosdir. Bu ikki soha barqaror rivojlanish konsepsiyasining uch jihati o'rtasida yaxlit integratsiyalashuvchi rolni bajaradi.

"Yashil" iqtisodiyot yo'nalishi bugungi kunda ustuvor va eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi, shuning uchun deyarli barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'z rejalari, maqsadlari, vazifalari, iqtisodiy transformatsiyalar va yashil texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish, infratuzilma, transport tizimini yangilash, bioyoqilg'i va yopiq sikl formatida ishlaydigan ekologik toza korxonalar yaratish va qayta qurish instrumentlari va usullariga ega.

O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot sari" ildam harakat qilgan holda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda keng ko'lamli taraqqiyot sari yuksalishlar, strategiyalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-son qaroriga asosan qabul qilingan "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash" dasturida[11]. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda mamlakatda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari jadallashtirish, "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, mamlakatda «yashil» iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5- oktyabrda PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi[12] tasdiqlandi.

2021- yil noyabr oyida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasining 26-yig'ilishida (COR-26) O'zbekiston Respublikasi tomonidan Parij bitimi doirasida 2030- yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligida issiqxona gazlari emissiyasini 2010- yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan 35 foiz kamaytirish bo'yicha qo'shimcha majburiyatni o'z zimmasiga olishi haqida bayonot berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi joriy yilning may oyida 2030- yilga qadar metan emissiyasini 2020- yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish bo'yicha mamlakatlarning jamoaviy maqsadga erishishi bo'yicha global majburiyat to'g'risidagi tashabbusga (Global Methane Pledge) qo'shildi.

Koronavirus pandemiyasi va iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, xususan, mamlakatda «yashil» iqtisodiyot va

«yashil» iqtisodiy o'sish bo'yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

1-jadval

2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022 yil	2024 yil	2026 yil	2028 yil	2030 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini kamaytirish (2021 yilga nisbatan)	%	5,0	14,0	22,0	27,0	30,0
2.	Sanoatda elektr energiyasi iste'moli, umumiy iste'moldagi ulushi	%	26,0	25,0	23,0	21,0	20,0
3.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish (gidroenergetika bilan birga)	%	8,0	9,0	24,3	29,0	30,5
		kVt/s	6,5	8,6	25,0	34,0	40,7
4.	Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	MVt	10,0	150,0	400,0	800,0	1500,0
5.	Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan	%	69,7	80,93	87,12	88,5	90,0
6.	O'rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko'paytirish	mln.m ³	64,2	68,1	77,0	85,5	92,3
7.	«Yashil makon» loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish (aholi punkting umumiy maydoniga nisbatan)	%	8,3	12,4	15,8	23,8	30,0
8.	Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi	%	30,0	40,0	50,0	60,0	65,0

“2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash” strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat. Strategiyada 2030- yilga kelib O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarini belgilab berilgan.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

– texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

– davlat investitsiyalari va xarajatlarning ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan «yashil» mezonlarni kiritish;

– davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish

orqali «yashil» iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

– ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, etakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga «yashil» iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

– orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish;

– «yashil» iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, «yashil» energiyadan foydalanishni ta'minlashga, «yashil» ish o'rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida strategiya respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini, moliyaviy barqarorligini, energetik va ekologik xavfsizligini oshirish, shuningdek, energiya tejash salohiyatini ko'tarish, modernizatsiya qilish, texnologik rivojlantirish va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali aholi turmush darajasini va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Strategiyada belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash bilan iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026 yilga kelib 2022 yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. //Xalq so'zi, 2024- yil 1- sentyabr.

2. Nordhaus, 2017a.Integrated assessment models of climate change. NBER Reporter, No. 3, pp. 16–20.

3. Lyaskovskaya, Ye.A., Grigoreva K.A. Formirovanie «zelenoy» ekonomiki i ustoychivost razvitiya strany i regionov. // Vestnik YuUrGU. Seriya «Ekonomika i menedjment». - 2018. –T. 12, № 1. - S. 15-22.

4. Urazov B.A., Xoliqov D. R. O'. Respublikamizda mavjud erkin iqtisodiy zonalarning paydo bo'lishi va ahamiyati //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 1. – S. 266-270.

5. Nordhaus W. (2017b). Projections and uncertainties about climate change in an era of minimal climate policies. NBER Working Paper, No. 22933

6. Chapple K. Defining the Green Economy: A Primer on Green Economic Development // Berkeley: The Center for Community Innovation (CCI) at UC-Berkeley. - 2008. - P. 66.

7. Xudayarov A.A., Pirmatov X.R. Vozdeystvie turizma na natsionalnuyu ekonomiku Indonezii //Sborniki konferensiy NIS Sotsiosfera. 2014. – №. 39. – S. 262-265.

8. Mamatov Mamajon Axmatjanovich, «ZELENAYa EKONOMIKA» I «ZELENYIY ROST» “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari: muammo va zamonaviy echimlar. yosh olimlar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Guliston. GulDU, 2024-yil. 54 str

9. Barqaror rivojlanish maqsadlari // BMT: <https://www.un.org/> .asosida muallif tomonidan tuzildi.

10. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 2- dekabrda PQ-436-son qaroriga asosan qabul qilingan “2030- yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sishni ta’minlash” dasturi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5- oktyabrda PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi.

KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLİYAVIY RESURSLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

Arziyev Sherzod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: arziev.sh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari va ularni amaliyotga joriy etish usullarini o‘rganadi. Kapital tanqisligi sharoitida kompaniyalar uchun diversifikatsiya zaruriy vosita bo‘lib, bu orqali ular risklarni kamaytirish va moliyaviy resurslarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Tadqiqotda moliyaviy diversifikatsiyaning turli turlari — horizontal, vertikal, moliya va geografik diversifikatsiya kabi yo‘nalishlar tahlil qilingan. Shuningdek, kompaniyalarning diversifikatsiya jarayonida qo‘llashlari mumkin bo‘lgan strategiyalar va usullar, masalan, kapital bozorlaridan foydalanish, yangi bozorlarni izlash va risklarni boshqarish tizimlarini yaratish kabi amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu ish, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilishning ahamiyatini ko‘rsatib beradi va kompaniyalarga diversifikatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yo‘l-yo‘riq beradi.

Kalit so‘zlar: gorizontal diversifikatsiya, diversifikatsiya strategiyalari, risk menejment, geografik diversifikatsiya.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются основные направления диверсификации финансовых ресурсов и методы их реализации на практике. В условиях дефицита капитала диверсификация является необходимым инструментом для компаний, позволяющим снизить риски и эффективно управлять своими финансовыми ресурсами. В исследовании анализируются различные виды финансовой диверсификации – горизонтальная, вертикальная, финансовая и географическая. Также даются практические рекомендации по стратегиям и методам, которые компании могут использовать в процессе диверсификации, таким как использование рынков капитала, поиск новых рынков и создание систем управления рисками. В данной работе показана важность диверсификации финансовых ресурсов, особенно в развивающихся странах, и даются рекомендации компаниям по успешной реализации процесса диверсификации.

Ключевые слова: горизонтальная диверсификация, стратегии диверсификации, управление рисками, географическая диверсификация.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114